



The relevance of protecting entrepreneurs' rights in digital commerce

E'zoza RAZZAKOVA¹

Tashkent State University of Law

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2025

Received in revised form

15 January 2025

Accepted 25 February 2025

Available online

25 March 2025

Keywords:

Digital commerce,
e-commerce,
legal protection,
competition law,
intellectual property,
electronic contract.

ABSTRACT

This article examines the issues of protecting entrepreneurs' rights in digital commerce and analyzes existing legal mechanisms for their resolution. It discusses legal issues related to the rapid development of e-commerce, competition violations, contractual rights, and intellectual property protection.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss2/S-pp417-422>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Raqamli tijoratda tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish masalalarining dolzarbligi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

raqamli tijorat,
elektron tijorat,
huquqiy himoya,
raqobat huquqi,
 intellektual mulk,
elektron shartnoma.

Ushbu maqolada raqamli tijoratda tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish muammolari va ularni hal etish bo'yicha mavjud huquqiy mexanizmlar tahlil qilinadi. Elektron tijoratning jadal rivojlanishi bilan bog'liq huquqiy muammolar, raqobatning buzilishi, shartnomaviy huquqlar va intellektual mulk himoyasi muhokama qilinadi.

¹ PhD student, Tashkent State University of Law.

Актуальность вопросов защиты предпринимательства в цифровой торговле

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

цифровая торговля,
электронная коммерция,
правовая защита,
конкурентное право,
интеллектуальная
собственность,
электронный контракт.

В данной статье рассматриваются проблемы защиты прав предпринимателей в цифровой торговле и существующие правовые механизмы их решения. Обсуждаются правовые вопросы, связанные с бурным развитием электронной торговли, нарушением конкуренции, договорными правами и защитой интеллектуальной собственности.

So'ngi yillarda butun dunyo bo'ylab raqamli iqtisod shiddat bilan rivojlandiki, bu barcha sohalarga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Ayniqsa, pandemiya davridan so'ng elektron tijoratga talab ortdi. Huquqshunoslar oldida esa, birmuncha yangi bo'lgan raqamli bozorlarda nafaqat iste'molchilar, balki tadbirkorlarning ham huquqlarini himoya qilish masalalari turar edi. Raqamli bozorlarda tadbirkorlarning huquqlari qay yo'llar bilan cheklanishi mumkinligini ko'rib chiqishdan avval, elektron tijorat atamasiga qonunda qanday ta'rif berilganligiga to'xtalib o'tamiz. **Elektron tijorat** – tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tadbirkorlik faoliyati doirasida axborot tizimlaridan foydalangan holda elektron savdo maydonchasi orqali tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladigan oldi-sotdisi. Demak, yuqoridagi fikrlardan shu anglashiladiki, elektron tijorat bu elektron savdo maydonchalari orqali amalga oshiriladigan savdo-sotiq ishlari ekan. **Elektron savdo maydonchasi** – tovarlar (ishlar, xizmatlar) oldi-sotdisini masofadan turib amalga oshirish imkonini beruvchi axborot tizimi. Yuqorida elektron tijorat tushunchasiga ta'rif berib o'tdik, endi nega aynan raqamli bozorlarda tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish ayni kunlarda dolzarb masala ekanligini yoritib o'tamiz.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasida quyidagi fikrlar keltirilgan. Davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlaydi.

Tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyati yo'nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli.

O'zbekiston Respublikasi hududida iqtisodiy makon birligi, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag'larning erkin harakatlanishi kafolatlanadi. Monopol faoliyat qonun bilan tartibga solinadi va cheklanadi. Demakki, tadbirkorlarning huquqlari konstitutsiya darajasida himoya qilinadi va monopol faoliyat qonun bilan qo'riqlanadi, biroq raqamli bozorlarda tadbirkorlarga nisbatan ularning raqobat, fuqarolik shartnomaviy hamda intellektual mulk huquqlari buzilish holatlari mavjud bo'lganligi uchun ham, ularning huquqlarini himoya qilish dolzarbligini bo'is, bosh qomusimiz tarkibiga ushbu modda kiritilgan. Shu bilan bir qatorda konstitutsiyaning 65-moddasi ham mavzu dolzarbligini yaqqol misoli. Fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste'molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi. Tadbirkorlar va iste'molchilar huquqlari konstitutsion darajada himoya qilinadi va bu zamon bilan hamnafaslik belgisidir.

Shu bilan bir qatorda Prezidentimiz tomonidan tashabbus qilingan “Raqamli iqtisodiyot – 2030” strategiyasining negizi ham iqtisodning barcha sohalarini raqamli platformalarda rivojlantirish sanaladi. Bundan shu anglashiladiki, endi avvalgidan-da tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilishga ehtiyoj ulkan, sababi an’anaviy bozorlarning geografik chegaralari barchaga ma’lum va uni tasarruf etish, undagi qonundan chetlanishlarni oldini olish bir muncha oson edi, biroq raqamli bozorlarning chegaralari ulkan u bir paytda davlatning ichki qonuni bilan qo’riqlanibgina qolmay, transchegaraviy huquqlarga murojaat etishi barchamizga ma’lum. Shu boisdan, 2022-yil mamlakatimizda “Elektron tijorat to’g’risida”gi qonunning yangi tahriri, 2023-yilda “Raqobat to’g’risida”gi qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Shuningdek, 2024-yilda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 256-son qarorining 2-ilovasi ham raqamli bozorlarda tadbirkorlik subyektlari huquq va manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. “Raqamli platforma operatorining ustun mavqeyini va ustun muzokara kuchini e’tirof etish hamda raqobatning cheklanishiga va (yoki) iste’molchilarning, boshqa xo’jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kamsitishga olib keladigan harakatlarni aniqlash tartibi to’g’risida”gi nizom nizomning nomi ham elektron tijoratda subyektlar huquqlarini himoya qilishga qaratilganligini isbotlab turibdi. Demak, yuqoridagi dolzarblik masalalarini ketma-ketlab quyidagicha ko’rsatish mumkin:

1. Elektron tijoratning jadal rivoji va huquqiy nizolar ortishi: Elektron tijorat dunyo bo’ylab jadal rivojlanib, global savdo-sotiqning asosiy qismiga aylangan. Shu bilan birga, tovarlarni yetkazib berishdagi kechikishlar, sifatga oid nizolar, firibgarlik holatlari kabi huquqiy masalalar ham ortib bormoqda. Bu esa tadbirkorlar huquq va manfaatlarini himoya qilishda aniq va samarali huquqiy mexanizmlar zaruratini oshirmoqda.

2. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik faoliyatining huquqiy xavfsizligi: Elektron tijoratda ishtirok etayotgan tadbirkorlik subyektlari ko’pincha shartnomalarini raqamli platformalar orqali tuzadilar, bu esa axborot texnologiyalaridan kelib chiqadigan xatarlarga, masalan, kiberhujumlar va ma’lumotlarning noqonuniy ishlatilishiga olib kelishi mumkin. Shunday sharoitda tadbirkorlarning huquqiy himoyasi ularning xavfsiz faoliyat yuritishini ta’minlash uchun muhimdir.

3. Tadbirkorlikni rivojlantirish va investitsion muhitni yaxshilash: Elektron tijoratda tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish tadbirkorlik faoliyatining barqarorligini oshirish va xorijiy hamda mahalliy investitsiyalarni jalb qilish uchun muhim omildir. Himoya mexanizmlarining samaradorligi iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga zamin yaratadi.

Keyingi masala elektron tijoratning qaysi jabhalarida tadbirkorlarning huquqlari buzilishi mumkinligi va ularni oldini olishda fuqarolik huquqiy choralarining o’rni haqida gaplashamiz.

Elektron tijoratda tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini fuqarolik huquqiy choralari bilan himoya qilish deganda – tadbirkorlik subyektlarining shartnomaviy, mulkiy, raqobat, intellektual mulkka oid huquqlarini himoya qilishda, zararni qoplashni talab qilish, jarimalar va penyalar undirish hamda buzilgan huquqlarni tiklashni talab etish kabilar tushunilishi mumkin.

Elektron shartnoma shartlarining buzilishi:

Tadbirkor buyurtmachiga tovarlarni belgilangan muddatda yetkazib beradi, lekin mijoz shartnomada ko’rsatilgan vaqtda to’lovni amalga oshirmaydi. Natijada, tadbirkor moddiy zarar ko’radi.

Yechim: Tadbirkor to'lovni undirish uchun sud yoki arbitrajga murojaat qilishi mumkin. Fuqarolik huquqiy chora sifatida esa, zararni qoplash usulidan foydalanish, boy berilgan foydani undirish mumkin.

Insofsiz raqobat: Raqobatchi kompaniya tadbirkorning mahsulotini soxta reklama yoki yolg'on ma'lumotlar tarqatish orqali obro'sini tushiradi va mijozlarni o'ziga tortadi.

Yechim sifatida sudga monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasiga murojaat qilish va huquqlarni tiklashga harakat qilish mumkin. Shu bilan bir qatorda, boshqa ustun mavqega ega bo'lgan bozor subyektlari mayda tadbirkorlarni bozordan chiqarib yuborish monopoliya past narxlardan foydalanishlari mumkin. Yechim sifatida, ustun mavqega ega subyektlar harakatlarining qonuniy monitoring qilish.

Firibgarlik holatlari, mijozlar yolg'on hisobraqamlar bilan tadbirkor ularga mahsulot yetkazib bergach, to'lov qilmasliklari yoki to'lovlarni amalga oshirishdan bosh tortishlari mumkin. Aynan mana shu holatlarda elektron tijoratda har bir shaxsni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi dastur yaratish muhimdir. Tadbirkor huquqlarini himoya qilish uchun, zararni undirish maqsadida sudga murojaat qilishi mumkin.

Intellectual mulk huquqlarining buzilishi: Tadbirkor tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot yoki xizmat dizayni, logotipi yoki brendi raqobatchi tomonidan ruxsatsiz foydalaniladi va sotuv uchun taklif etiladi. Yechim maqsadida intellektual mulk huquqini himoya qilish uchun sud yoki maxsus organlarga murojaat qilish mumkin.

Elektron tijoratda tadbirkorlik subyektlarining huquq va manfaatlarini fuqarolik-huquqiy himoya qilish usullari elektron tijoratning jadal rivojlanishi bilan ortib borayotgan huquqiy muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida ushbu himoya usullari haqida to'xtalib o'tamiz:

1. Shartnomaviy-huquqiy himoya

Elektron tijoratda tadbirkorlik faoliyati ko'pincha elektron shartnomalar orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

Elektron shartnomalarni tasdiqlash va yuridik kuchini ta'minlash: Raqamli imzo va elektron shartnomalar qonuniy jihatdan himoya qilinishi kerak.

Standart shartnoma shartlarini ishlab chiqish: Bunda, tomonlar o'rtasida kelishmovchiliklarni minimallashtirish maqsadida elektron tijoratga moslashtirilgan shartnoma modellarini qo'llash muhimdir.

Elektron shartnoma buzilishidan himoya: Shartnoma shartlari bajarilmaganda tomonlarning javobgarligini belgilovchi qonunchilik mexanizmlarini mustahkamlab qo'yish;

2. Tezkor huquqiy nizolarni hal qilish usullari

Elektron tijoratda nizolarni tezkor hal qilish uchun quyidagi usullar qo'llaniladi: Onlayn nizolarni hal qilish tizimi: Nizolarni sudga bormasdan hal qilish uchun maxsus onlayn platformalar ishlab chiqish.

Mediatsiya va arbitraj: Mediatorlar yoki arbitraj orqali nizolarni tezkor hal qilish mexanizmlarini kuchaytirish.

Raqamli sud tizimi: Elektron tijorat bo'yicha nizolarni ko'rib chiqish uchun raqamli sud tizimlarini joriy etish va jarayonlarni soddalashtirish;

3. Fuqarolik-huquqiy javobgarlikni belgilash

Shartnoma buzilganida kompensatsiya olish: Tadbirkorlik subyekti shartnoma shartlariga rioya qilmagan tomonlardan moddiy zararlarni qoplashni talab qilish huquqiga ega.

Nohalol raqobatga qarshi choralar: Elektron tijoratda nohaq raqobatni oldini olish uchun qonunchilik mexanizmlarini joriy qilish.

Intellectual mulkni himoya qilish: Tadbirkorlarning intellektual mulk huquqlarini himoya qilish va qonuniy buzilishlarni bartaraf etish;

4. Elektron tijorat kodeksi: Elektron tijorat bo'yicha yagona huquqiy hujjatni ishlab chiqish va uning ichida barcha subyektlar huquqlarini aniq qilib belgilash.

Xulosa sifatida qonunchilikka nazariy va amaliy takliflar mavjud.

Nazariy taklif: Elektron tijorat to'g'risidagi kodeksni ishlab chiqish va subyektlarning huquq va majburiyatlarini aniq qilib belgilash, ushbu kodeksda elektron yo'l bilan tuziladigan shartnomalar va smart kontraktlarning huquqiy maqomi va ularni tartibga solishning aniq mexanizmlarini ishlab chiqish, shartnoma shartlarini bajarmagan hollarda fuqarolik huquqiy choralarni kuchaytirish.

Raqobat qonunchiligiga tuzatishlar kiritish: Raqamli platforma va raqamli platforma subyektlari tushunchalarini aniq yoritish. Mayda tadbirkorlik subyektlarining huquqlari buzilmasligi uchun Ustun mavqega ega tadbirkorlik subyektlarini oldindan monitoring qilish. 2020-yil Germaniya raqobat to'g'risidagi qonuniga 10-ga yaqin o'zgartirish kiritildi unda nafaqat ustun mavqega ega subyektlar, balki kelajakda ustun mavqe deya e'tirof etilishi mumkin bo'lgan subyektlar harakatlari nazoratga olinib, boshqa tadbirkorlik subyektlari huquqlari himoya qilina boshlandi. Aynan mana shu amaliyotni bizda ham qo'llab ko'rish.

Elektron tijorat qonunchiligiga tuzatishlar kiritish: Xitoyda 2019-yilda yangi "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonun qabul qilindi va u raqamli platformalar faoliyatini ancha tartibladi. Aynan uning 22-moddasida elektron tijorat ishtirokchilari o'z ustun mavqelaridan raqobatni cheklashlariga yo'l qo'yilmasligi ko'zda tutilgan. Elektron tijorat platformalari noqonuniy mahsulot yoki xizmatlarni aniqlaganda bu haqda vakolatli organga xabar berishlari kerakligi ushbu qonunning 29-moddasida o'z aksini topgan. Shuningdek, qonunda platformalarda joylashtirilgan ma'lumotlar, mahsulotlar, xizmatlar va tranzaksiyalar uch yil muddatga saqlanishi lozim, bu esa, kelajakda kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarni oldini oladi. Aynan mana shu holatda mamlakatimizning "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunida faqatgina 5-moddada davlat elektron tijorat uchun zarur raqobat muhitini ta'minlashi ko'zda tutilgan, biroq Xitoy qonunchiligi singari ustun mavqeni suiiste'mol qilmaslik, noqonuniy bo'lgan tovarlar savdosini oldini olish maqsadida tegishli idoralarga ma'lum qilish kabi moddalar mavjud emas. To'g'ri, muomaladan chiqarilgan tovarlar savdosi ta'qiqlangan biroq, noqonuniy tovarlar sirasiga nafaqat muomaladan chiqarilgan tovarlar, balki kontrafakt, intellektual mulk huquqlarini buzilishiga olib kelgan tovarlar ham kirishi mumkin. Shu sababdan ham tadbirkorlarning raqobat, ham intellektual mulk huquqlarini himoya qilish uchun yangi o'zgartirishlar kiritilgan mukammal qonunchilik lozim.

Amaliy taklif: raqamli platformalardan har bir shaxsni hech qanday qoidabuzarliksiz aniq o'zlari foydalana olayotganini ko'rsatib turuvchi tizim yaratish, har bir savdo platformasida eslatma yaratish, ya'ni tadbirkor va iste'molchilarga o'z shartnomaviy majburiyatlarini eslatib turuvchi oyna yaratish. Masalan, shartnoma tuzildi onlayn shaklda eslatma telefonga shartnoma tuzilganligi haqida xabar beradi, to'lov amalga oshirilishi kerak va buning ma'lum muddati bor eslatma shu muddat ichida mijozga to'lovni eslatib turadi, mijoz atay to'lov qilmagan yoki bundan bosh tortganda uning sahifasini to zarar va penyalar undirilmaguncha harakatsiz qilib qo'yadi.

Agar boshqa tadbirkor boshqasining logotipi, yoki kontrafakt mahsulot bilan savdo qilmoqchi bo'lsa, shunday tizim yaratish kerakki, patentlar va boshqa har qanday egasiga bog'liq bo'lgan huquqlarni tezda ko'zdan kechirib, intellektual mulk huquqini buzmoqchi bo'lgan tadbirkorning yoki mijozning sahifasini harakatsizlantirib, avtomat huquqi buzilgan tadbirkorga va tegishli mas'ul organlarga xabar berish funksiyasi mavjud bo'lsin.

Umuman olganda qonunchilikda ba'zi kamchiliklar mavjud, biroq amaliyot ham ularni qo'llashda sustkashliklar bor. Tadbirkorlarni huquqlarini himoya qilish ularni elektron platformalarda fuqarolik shartnomaviy, raqobat, intellektual mulk huquqlarini himoya qilishning mukammal mexanizmlarini ishlab chiqish darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. O'zbekiston Respublikasi Elektron tijorat to'g'risidagi qonuni;
3. O'zbekiston Respublikasi Raqobat to'g'risidagi qonuni;
4. Vazirlar Mahkamasining 256-son qarorining 2-ilovasi "Raqamli platforma operatorining ustun mavqeyini va ustun muzokara kuchini e'tirof etish hamda raqobatning cheklanishiga va (yoki) iste'molchilarning, boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kamsitishga olib keladigan harakatlarni aniqlash tartibi to'g'risida"gi.
5. https://www.researchgate.net/publication/30530142_Labour_Law_Text_and_Materials
6. Regulating Contracts – Hugh Collins – Google Books https://books.google.com/books/about/Regulating_Contracts.html?id=YIYv2nWTHEwC
7. file:///C:/Users/user/Downloads/FUQAROLARNING_merged.pdf;
8. <https://www.whitecase.com/insight-alert/new-competition-law-germany-10th-amendment-german-act-against-restraints-competition>;
9. https://apps.fas.usda.gov/newgainapi/api/report/downloadreportbyfilename?filename=China%20Passes%20E-Commerce%20Law_Shanghai%20ATO_China%20-%20Peoples%20Republic%20of_10-19-2018.pdf China e-commerce law 2019